

KESIMNING NUTQIY VA KOMMUNIKATIV PRAGMATIK VAZIFALARI

Babaxodjayeva Shaxzoda

Samarqand davlat chet tillari instituti

Sharq tillari fakulteti 4-bosqich talabasi

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 17.05.2026

Revised: 18.05.2026

Accepted: 19.05.2026

KALIT SO'ZLAR:

kesim, pragmatika,
kommunikatsiya, nutq,
gap, predikat, axborot,
ta'sir, sintaksis.

Ushbu maqolada kesimning nutqdagi o'rni, uning kommunikativ-pragmatik vazifalari hamda til tizimidagi ahamiyati yetarlicha yoritilib berilgan. Til birliklari ichida kesim gapning markaziy elementi sifatida nafaqat grammatik, balki nutqiy va pragmatik funksiyalarni ham bajaradi. Maqolada kesimning axborot uzatish, kommunikativ maqsadni ifodalash, nutq jarayonida so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, kesimning modal, zamon va inkor shakllari orqali nutqning ta'sirchanligi va mazmuniy aniqligini ta'minlash xususiyatlari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida kesimning nafaqat sintaktik birlik, balki muhim kommunikativ va pragmatik vosita ekanligini asoslab berildi.

Tilshunoslikda kesim gapning eng muhim bo'lagi hisoblanadi. U gapda harakat, holat yoki mavjudlikni ifodalab, boshqa bo'laklarni o'ziga birlashtiradi. Shu bilan birga, kesim nutqiy jarayonda muhim kommunikativ vazifalarni bajaradi.

Kesimning nutqiy vazifasi, avvalo, axborotni yetkazish bilan bog'liq hisoblanadi. Har qanday gap orqali berilayotgan asosiy mazmun aynan kesim orqali ifodalanadi. Masalan, gapda voqea-hodisaning sodir bo'lishi, inkor qilinishi yoki ehtimolligi kesim orqali belgilanadi. Bu esa nutqning asosiy informal yukini kesim bajarishini ko'rsatadi.

Kommunikativ jihatdan kesim gapning markazi bo'lib, u nutq ishtirokchilarining maqsadini ifodalaydi. Masalan, buyruq, iltimos, maslahat yoki xabar berish kabi kommunikativ niyatlar kesim orqali yuzaga chiqadi. Kesimning shakli va ohangi orqali gapning qanday maqsadda aytilgani aniqlanadi. Pragmatik nuqtai nazardan esa kesim tinglovchiga ta'sir ko'satish vositasi hisoblanadi. Nutq jarayonida so'zlovchi kesim orqali o'z munosabatini bildiradi, tinglovchini ma'lum harakatga undaydi yoki axborotni muayyan tarzda yetkazadi. Masalan, modal fe'llar, zamon shakllari va inkor vositalari orqali kesimning pragmatik imkoniyatlari kengayadi.

Shuningdek, kesimning aktual bo'linishdagi roli ham muhim hisoblanadi. Nutq jarayonida so'zlovchi kesim orqali o'z munosabatini bildiradi, tinglovchini ma'lum harakatga undaydi yoki axborotni muayyan tarzda yetkazadi. Masalan, modal fe'llar, zamon shakllari va inkor vositalari orqali kesimning pragmatik imkoniyatlari kengayadi.

Kesim gapning asosiy sintaktik markazi hisoblanadi va bu bilan birga nutq jarayonida eng muhim kommunikativ va pragmatik vazifani o'zida aks ettirgan hisoblanadi. Tilshunoslikda, pragmatika nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, kesim faqat harakat yoki holatni ifodalovchi birlik sifatida emas, balki so'zlovchining maqsadi, munosabati va tinglovchiga bildirmoqchi bo'lgan ta'sirni ham bildiradi. Gapda ifodalanayotgan asosiy axborot ko'p hollarda aynan kesim orqali namoyon bo'ladi, chunki u egaga nisbatan yangilik, ya'ni rema vazifasida keladi. Bu holat asosan tema va rema nazariyalari bilan bog'liq bo'lib, kesim nutqning informativ markazi sifatida qarasak bo'ladi.

Kesimning kommunikativ vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi, u gapning qanday maqsadda aytilgannini aniqlaydi. Masalan, kesim shakli va ohangi orqali gapning xabarini, so'rog'ini, buyrug'ini yoki iltimosini bildiradi. Bu esa nutq aktlari nazariyasi doirasida tushuniladi. Masalan, "keldi" shakli oddiy xabarni bildirsa, "keldimi?" shakli esa so'roqni, "kel!" esa buyruq ma'nosini ifodalab kelyapti. Shu narsa ma'lumki, kesim nutq aktining turini belgilovchi asosiy vosita sifatida olishimiz mumkin.

Pragmatik jihatdan qaraydigan bo'lsak, kesim orqali so'zlovchining subyektiv munosabati, ishonchi, gumoni va hissiyoti ham ifodalab keladi. Bu ayniqsa modallik orqali namoyon bo'ladi. Modallik tushunchasi kesim bilan bevosita bog'liq bo'lib, u orqali ehtimollik, zarurat, majburiyat, istak kabi ma'nolar izohlanib kelinadi.

Kesim nutqda ta'sirchanlikni ham oshirish bilan birga ta'minlaydi, ya'ni u tinglovchiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatish orqali namoyon bo'ladi. So'zlovchi

kesim orqali buyruq beradi, maslahat beradi, ogohlantiradi va hissiy holatini ifodalab keladi. Bundan tashqari, og'zaki nutqda kesimning ohang bilan birgalikda kelishi uning pragmatik kuchini yanada oshiradi. Shu sababli bir xil grammatik shakl turli vaziyatda turlicha ma'nolarni ifodalab keladi.

Gap bo'laklari ma'no jihatdan o'zaro bir-biriga bog'liq hisoblanadi. Shu boisdan gap bo'laklarining asosiy markazini shakillantiruvchi vosita – kesimlik kategoriyasining tarkibi, ma'nolari va ifodalanish usullariga qisqacha qilib to'xtalib o'tsak. Zero, gap kengaytiruvchi tushuncha hisoblanib, ularni belgilash, shu asosda gapning struktur zaruriy va ixtiyoriy tarkibiy qismlarini ajratish gapning "yuragi", gapning gap ekanligini ta'minlovchi kesimlik kategoriyasi va uning ko'rsatigichi, ifodalanish xususiyati bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, gapning gapligini, ya'ni bir nisbiy tugal fikrni boshqalarga yetkazish, ular tomonidan to'g'ri anglanishining eng muhim omili – bu nutq bosqichida nutq sharoiti, lisoniy bosqichda esa kesimlik kategoriyasi.

Demak, kesimlik kategoriyasi fikrni shakillantiruvchi, uni tinglovchiga yetkazishning eng muhim lisoniy vositasi asosi.

Kesimlik kategoriyasi mazmun jihatdan tasdiq-inkor, so'zlovchining bayon etilgan fikrga bildirgan munosabati – moddallik, zamon va shaxs-son ma'nolaridan tarkib topadi. Bu ma'nolar yaxlit holda voqelangandagina kesimlik kategoriyasi ichki mazmun tomonini namoyon qila oladi. Tasdiq-inkor, modallik, zamon, shaxs-son ma'nolarning har biri alohida-alohida ravishda yuzaga chiqishi mumkin. Masalan, modal so'zlarda mayl (modallik) ma'nosi bo'ladi. Kishilik olmoshlari va egalik qo'shimchalarida shaxs-son ma'nosi yetakchilik qiladi. Tasdiq-inkor so'zlari (ha, yo'q)da, bo'lishli-bo'lishsizlik (-ma,)da tasdiq-inkor ma'nosi yorqin ifodalgan bo'ladi. Payt ravishlari, zamon otlari, shuningdek, o'rin-payt kelishigi shakli, ravishdosh va sifatdoshda zamon ma'nosi ifodalanadi. Lekin bularning barchasi alohida-alohida voqealanish bo'lib, kesimlik vazifasida yuzaga chiqishidan boshqa holatda yaxlit system tabiatga ega bo'lmaydi. Zero, kesimlik kategoriyasi mazkur alohida olingan kategoriyalarning yaxlitligidan iborat bo'ladi. Har qanday tizim-o'z tarkibiy qismlarining oddiy yig'indisidan kattaroq butunlik. Chunki, tasdiq-inkor, modallik, zamon, shaxs-son kategoriyalari kesimlik kategoriyasida birlashar ekan, butunlik tarkibiy qismlaridan avval bo'lmagan, lekin sistema tashkil etganda tug'iladigan hodisalarni ham qamrab oladi. Masalan, o'tgan yili o'qimagan odam birikuvidagi o'qimagan so'z shaklining birikuvchisi – o'tgan yili so'z kengaytiruvchisi (lekin gap bo'lagi emas). U o'tgan yili o'qimagan gapidagi o'tgan yili so'z shakli – gap bo'lagi (hol). Demak, birinchi qurilmadagi kesimlik

kategoriyasi emas, shu boisdan uning birikuvchisi (o'tgan yili) gap bo'lagi emas. Ammo ikkinchi qurilmada -gan kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismi bo'lib, uning birikuvchisi gap bo'lagi. Gap kesimlik tarkibidagina gap bo'laklarini o'ziga tobelaydi. Bu uning butunlik tarkibida kasb etgan yoki namoyon bo'lgan belgisi.

Kesimlik kategoriyasining nutqiy gaplarda voqelanishidagi ikki holatni farqlash lozim bo'ladi.

- 1) kesimlik kategoriyasining grammatik (morfolgik) shakillar orqali voqelanishi;
- 2) kesimlik kategoriyasining semantik-funksional ifodalanishi.

Bundan kelib chiqqan holda gapni ikkiga ajratish mumkin:

- 1) grammatik shakillangan gap;
- 2) semantik-funksional shakillangan gap;

Grammatik shakillangan gapda kesimlik kategoriyasi ma'nosi kesimlik qo'shimchalarining faqat o'zi bilan yoki bog'lama va kesimlik qo'shimchalari vositasida ifodalanishi mumkin.

Shuningdek, kesimning aktual bo'linishdagi roli ham muhimdir. Gapda tema va rema munosabatlarini shakllantirishda kesim asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tilida kesimlik qo'shimchalarining quyidagi turlari mavjud hisoblanadi:

1) kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismlari sintaktik, ya'ni ajralmas, bitta moddiy ko'rinishda berilgan qo'shimchalar bo'ladi: o'qiy, ketaylik, keldi. Bu qo'shimchalar (-y, -aylik, -di)ning har birida tasdiq-inkor, shakl, zamon va shaxs-son ma'nolari birgalikda umumiy shaklga ega. Masalan, o'qiy kesimidagi -y qo'shimchasi bo'lishlilik, buyruq-istak mayli, kelasi zamon, birinchi I shaxs birlik ma'nolariga ega.

Hozirgi zamon tilshunosligida kesimning pragmatik xususiyatlari alohida tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, diskurs tahlili va nutq aktlari nazariyasida kesimning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishlar kesimning nafaqat grammatik, balki ijtimoiy va psixologik jihatlarini ham ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, kesim gapning markaziy bo'lagi sifatida nutqiy va kommunikativ-pragmatik vazifalarni bajaradi. U orqali axborot yetkaziladi, kommunikativ maqsad ifodalanadi va tinglovchiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois kesimni pragmatik jihatdan o'rganish tilshunoslikda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Numonov A. Hozirgi o'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.

-
2. Mahmudov N. Til va nutq. – Toshkent: Fan, 2013.
 3. Safarov Sh. Pragmatik tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2008.
 4. Abdurahmnov G'. O'zbek tilining grammatikasi. – Toshkent, 1996.
 5. Yule G. Pragmatics. – Oxford University Press, 1996.

